



## ”BOBURNOMA” DA GULBADANBEGIM OBRAZINING SUVRATLANISHI

Alfraganus university o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-  
bosqich magistranti **Usmonova Shahodat**

**Annotatsiya.** Gulbadan begim Zahiriddin Muhammad Boburning Dildor begim ismli xotinidan tug‘ilgan. U Boburning nabiradi Hindiston shohi Akbarshohning buyrug‘iga binoan ”Humoyunnoma” asarini yozgan. Boburiylar xonadonida davlat ishlarida ayollar faol bo‘lishgan. O‘sha muhitda o‘sgan Gulbadanbegim tarixiy bilimlarga ega bo‘lgan, qiziqishi bilan bir necha maratoba ustun bo‘lgan.

**Абстрактный.** Бегум Гульбадан родилась от жены Дилдар Бегилы Мухаммада Бабура. Он написал «Хумаюннаму» по заказу внука Бабура Акбар-шаха из Индии. Женщины принимали активное участие в государственных делах при династии Бабури. Выросший в этой среде Гульбаданбегим обладал историческими знаниями, и его интерес был в несколько раз выше.

**Abstract.** Begum Gulbadan was born from the wife of Dildar Begil of Muhammad Babur. He wrote Humayunnama on the order of Babur's grandson Akbar Shah of India. Women were active in government affairs in the Baburi dynasty. Growing up in that environment, Gulbadanbegim had historical knowledge, and his interest was several times superior.

**Kalit so‘zlar.** Gulbadanbegim, ”Boburnoma”, ”Humoyunnoma”, Zahiriddin Muhammad Bobur, olim, tarixchi, oqila ayol, Tilsim to‘yi, Hindol, podshoh

**Ключевые слова.** Гульбаданбегим, «Бобурнома», «Хумаюннома», Захириддин Мухаммад Бабура, ученый, историк, мудрая женщина, свадьба Тильсима, Хиндол, король.

**Keywords.** Gulbadanbegim, "Boburnoma", "Humayunnoma", Zahiriddin Muhammad Babur, scholar, historian, wise woman, Tilsim's wedding, Hindol, king



” Boburnoma” dagi bilimli, oqila, tadbirkor Boburga yordam bergan, maslahatgo’y, samimiy ayollarning o’rni, ularga berilgan ta’rif- tavsiflarni tahlil qilishga harakat qildik. Bobur ayollarga nisbatan yuqori ehtirom ko’rsatgan. Bobur onasini birgina ”onam” deb keltirmagan, balki ”onam hazratlari”, ” volidam” kabi chiroyli nomlar bilan atagan va shu yerda yozuvchining onaga bo’lgan muhabbati, mehrini sezamiz. Ayollarga bo’lgan ehtiromni boshqa o’rinlarda ham ko’rishimiz mumkin. Masalan, Gulbadanbegimning ” Humoyunnoma” asarida ” Har juma kuni ammalarini ko’rgani borar edilar. Bir kuni havo nihoyatda issiq edi, onam hazratlari : ” Bugun havo nihoyatda issiq, agar juma kuni ko’rgani bormasangiz nima bo’ladi, begimlar bundan xafa bo’lmasalar kerak” deb so’radilar. Podshoh onamga mana bunday javob berdilar: ” Mohim, sizdan bu gapning chiqishi taajjubdir. Hazrat Abu Said Mirzoning qizlari o’z ota va birodarlaridan judo bo’lib bu yerga kelgan agar men ularning ko’nglini olmasam nima bo’ladi?”<sup>1</sup>.

<sup>21</sup>Ko’ramizki, Bobur o’z ayollari , qizlaridan tashqari ammalariga, unga yaqin bo’lgan ayollarga ham alohida e’tibor qaratadi.

Gulbadan begim Zahirddin Muhammad Boburning Dildor begim ismli xotinidan tug’ilgan. Haqiqiy ismi Soliha Sulton begim. Gulbadan begim otasining buyrug’iga ko’ra, katta onasi, Humoyun Mirzoning onasi Mohim begim qo’lida tarbiyalanadi. Mohim Begim Bobur podshohning katta xotini va suyukli xotini edi. 1525-yilda Mohim begim Gulbadan begimni o’z tarbiyasiga oladi. U ikki onasiga <sup>22</sup>birdek mehr va hurmat-ehtirom ko’rsatgan, e’zozlagan. Gulbadan begim 1529-yilgacha Kobulda yashaydi. Bobur Hindistonni bosib olgach, otasining oldiga boradi. Gulbadan begim zamonasining eng oqila, tadbirli ayollaridan bo’lgan.

U ” Humoyunnoma” asarini yozgan. ”Humoyunnoma” XVI asrda Hindistonda Zahirddin Muhammad Boburning nabirasi Hindiston shohi Akbarshoh (1556-1603) davrida Boburning qizi Gulbadan begim tomonidan yozilgan”. Gulbadanbegim yozadiki, Akbarshoh o’z hukmronligi tarixini abadiylashtirish maqsadida o’z davrining barcha olimlariga, qarindosh- urug’lariga murojaat qilib, <sup>1</sup> ”Bobur podshoh va Humoyun

<sup>21</sup> Гулбаданбегим. Хумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. В 38.

<sup>22</sup>





podshoh hukmronligi davri haqida "nimaiki bilsangiz yozingiz" deb buyurgan. Bu haqida Gulbadanbegim o'z asarida shunday yozadi: "Firdavsmakon va jannatoshyon Hazrat haqida nimaiki bilsangiz yozingiz degan hukm bo'lgan edi"<sup>23</sup> Gulbadanbegim otasi vafot etganda 8 yoshda edi. Shu sababli Boburning hukmronligidagi voqealar oz esida qolgan. U buyruqqa binoan otasi va akasi haqida eshitgan va bilganlarini yozgan. Uni Mohim Begim tarbiyalagan. Onasi Dildor begim edi. Gulbadanbegim o'z onasi haqida "Humoyunnoma" da fikr yuritir ekan ba'zan "onam hazratlari" deb yozadi. Gulbadanbegim uchun otasi faqatgina ota bo'lib qolmay, balki uning O'rta asr Sharq tarixida ayollardan chiqqan yagona tarixnavis olima bo'lib yetishishida ibrat bo'lgan ustozdir. Uning tarixchi, olima bo'lib yetishishida Hindiston va Xurosonda mavjud bo'lgan adabiy- madaniy muhitning ta'siri katta. Gulbadanbegim o'z davrining qiyin saroy muhitiga e'tibor qaratadi. Tarixchi Olima Bobur oilasining bizga ma'lum bo'lmagan, aksar tarixiy asarlarda uchramaydigan holatlarni tasvirlaydi. U asarida o'sha zamonning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarixiy voqealarga, savdo munosabatlarga, to'y, aza marosimlari bilan bog'liq odatlar, marosim va kundalik kiyiladigan kiyim - kechaklarning turlari haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Asarida XVI asrda Bobur ayniqsa Humoyun saroyidagi xotin- qizlar ahvoli va feodal jamiyatda tutgan mavqelari haqida ham ko'p ma'lumotlar mavjud. Boburiylar xonadonida ayollarning ba'zi davlat ishlarida tutgan o'rni katta bo'lgan. Xususan, Gulbadanbegimning o'zi ham Humoyun davrida diplomatik munosabatlarda ishtirok etgan. Saroyga yaqin bo'lgan ayollarning o'rni keyingi asrlarga nisbatan yuksak bo'lgan. Ayollar bayramlarda mardona erkakcha kiyimlar kiyganlar va chavandozlik, tirandozlik kabi o'yinlarda qatnashgan.

Gulbadanbegim "Humoyunnoma" da Tilsim to'yi munosabati bilan yig'ilgam begimlar haqida to'xtalar ekan: "Bular mardona kiyimlarni kiyar edilar va zaxgirtaroshlik, chavandozlik, tirandozlik kabi har xil hunarlarga usta edilar va sozlardan

<sup>23</sup> Gulbadanbegim. Humoyunnoma. - Toshkent: "Ўзбекистон", 2016. В. 3

<sup>2</sup> Gulbadanbegim. Humoyunnoma. - Toshkent: "Ўзбекистон", 2016. - В.29.



ko'pchiligini chalar edilar"<sup>1</sup>. Demak Boburiylar xonadonidagi ayollar davlat ishlarida faol bo'lishgan va podshohga yaqin ayollar oqila va "o'tkir"<sup>242526</sup> bo'lishgan. O'sha muhitda o'sgan Gulbadanbegim tarixiy bilimlarga ega bo'lgan, qiziqishi bilan bir necha maratoba ustun bo'lgan. U "Humoyunnoma" asarini yozishdan tashqari she'riyatdan ham xabardor bo'lgan. Mir Mahdi Mirzoning "Tazkirot ul- xavotin" asarida "Sevgisiz hayotda ma'no yo'q" mazmunidagi bayti keltirilgan. Uning hamma yozgan she'rlari yetib kelmagan. Bizgacha ma'lum bo'lgan "Nishtari ishq" va ayollar haqida xotiralar kitobidan o'rin olgan fors tilida yozilgan bayti keltirilgan.

She'ring tarjimasi:

Har pari ruxsoriga oshiqi yor yo'q

Bilki unga haq yo'lida murod yo'q.

Boburiylar davrida yuqori tabaqaga mansub ayollar mamlakatning ichki va tashqi hayotida tutgan o'rinlari haqidagi ma'lumotlar nihoyatda nodirdir chunki bunday ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Shunday ayollardan biri Gulbadanbegimning o'zidir. U akasi Humoyun podshoh, so'ng Akbarshoh davrida Hindistonda davlat ishlariga aralashgan. Ayrim hollarda esa saroydagi o'zaro munosabatlarni hal qilishda uning fikr va mulohazalari katta e'tiborga ega bo'lgan. Gulbadanbegim o'z asarida nozikta'b uzoqni ko'ra oladigan oqil ayol, o'z davrining qiyin ijtimoiy, siyosiy hayotini aql- idrok bilan tahlil qila oladigan olima sifatida ko'rinadi. U o'z aka- ukalari, opa-singillariga mehribon bo'ladi. Ayniqsa u Mirzo Hindolni ko'proq yaxshi ko'rgan. Humoyun va Kamron o'rtasidagi jangda Hindol og'ir jarohat bilan vafot qilgan edi. Uning vafotidan ko'p xafa bo'ladi va kuyunadi. Hattoki Mirzo Hindolning o'limi evaziga Gulbadanbegim o'zining yoki o'g'li Saodatyorning, hattoki turmush o'rtog'i Hizirxo'janing jonini fido qilgisi kelganini aytadi. Gulbadan begim o'z asarida o'zi haqida deyarli ma'lumot yozmagan. Yuqoridagi jumlar orqali ozroq bo'lsa ham ma'lumotga ega bo'lamiz. Gulbadanbegimning yuragida onasining

<sup>1</sup> Gulbadanbegim. Хумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. В. 3





orzusi kabi orzu bor edi. Aka-ukalarining oʻrtasidagu doim boʻladigan ixtilofni koʻrib, ularning oʻrtasida oʻzaro ahillik, hamjihatlik, birlik, tinchlikni barpo qilishga harakat qilgan. Bu hislar uning asarida ham seziladi. Doim akasi Humoyunga aka-ukalarining oʻrtasida ahillik boʻlishi orzusi borligini qayta-qayta aytib kelgan, biroq uning niyatlari toʻliq amalga oshmagan. Humoyun va Komron oʻrtasidagi adovatlar kundan kunga ildiz otaveradi. Humoyun ham singlisining orzusiga befarq boʻlmaydi. U singlisining gaplarini inobatga olib, ukalari bilan birga kelishib olishga chaqiradi: " Shu majlisda Hazrat Humoyun bu haqirni yodga olib, oʻz ukalariga: " Lohurda Gulbadanbegim hamma birodarlarimni bir yerda koʻrsam, deb orzu qilganliklarini aytibdilar, oʻtirishimiz bilan oʻsha gap esimga kelib turibdi... Men hech vaqt musulmonlar ziyonini istagan emasman va nahot oʻz ukalarimning ziyonini talab qilsam" <sup>1</sup> — dedilar.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ushbu maqolada ayollarga nisbatan temuriy shahzodalarning munosabati, farzandlarining tarbiyasida tutgan oʻrnini koʻrdik. Maqolamizda Gulbadanbegimning saroy ishlarida qay darajada ishtirok etganligini koʻrishimiz mumkin. Gulbadanbegimda sharq ayollariga xos oliyjanoblik, oqilalik, ilmlilik va tadbirlilik bor. Maqolani oʻqish jarayonida uning saroy ishlarning boshqarilishida oʻrni kattaligini koʻrdik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адабиёт назарияси, 2 томлик. 1-том. – Тошкент: "Фан", 1979, 447 бет.
2. Адабиёт назарияси, 2 томлик. 2-том. – Тошкент: "Фан", 1979, 448 бет.
3. Adizova I. "Bobur boburiylarga badiiy mahorat" // Til va adabiyot ta'limi. –2014. 3-son. – 41-bet.
4. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015. – 699 bet.
5. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo`jayeva tabdili ) . – Toshkent: "O`qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 366 bet.
6. Gulbadanbegim. Xumoyunoma. – Toshkent: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет.
7. Rumer G. Gulbadan. T., Sharq , 2007.



8. Bobur. Z. M. T: O‘qituvchi. 1995.

9. Bobur ensiklopediyasi. -T.; “Sharq”, 2014. 744 -b.

